TASDIQLAYMAN
O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i
_____ I.Madatov
2025-yil 14-oktabr

Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti
4-bosqich Pedagogika yo‘nalishi talabalariga 7-semestr uchun
« Deviant xulq-atvor profilaktikasi » fanidan yakuniy nazorat savollari
Imtihon shakli: yozma-og‘zaki

№	Mavzu	1-QISM “OSON SAVOLLAR” deb nomlanadi va semestrda o‘qitilishi rejalashtirilgan mavzularning kirish qismidan asosan nazariy savollardan iborat bo‘ladi	2-QISM “ODDIY SAVOLLAR” deb nomlanadi va semestrda o‘qitilishi rejalashtirilgan mavzularning 1-rejasidan asosan mulohazaviy savollardan iborat bo‘ladi	3-QISM “MURAKKAB SAVOLLAR” deb nomlanadi va semestrda o‘qitilishi rejalashtirilgan mavzularning 2-rejasidan asosan qoidalar, teoremalar, kabi savollardan iborat bo‘ladi	4-QISM “MURAKKAB SAVOLLAR 2” deb nomlanadi va semestrda o‘qitilishi rejalashtirilgan mavzularning 3-rejasidan asosan tendensiyalar, paradigmalar, konsepsiyalar kabi savollardan iborat bo‘ladi	5-QISM “QIYIN SAVOLLAR” deb nomlanadi va semestrda o‘qitilishi rejalashtirilgan mavzularning xulosa yani yakuniy qismidan asosan talabani mustaqil fikrlashga, mavzuni to‘liq anglashga yo‘naltiradigan savollardan iborat bo‘ladi
1.	**Xulqi og‘ishganlik psixologiyasiga kirish**	Xulqi og‘ishganlik (deviant xulq) tushunchasi haqida ma’lumot bering. (T.I. deviant xulq, ijtimoiy me’yorlar, huquqiy me’yorlar)	Xulq og‘ishining asosiy sabablarini izohlab bering. (T.I. oiladagi nosog‘lom munosabatlar, tarbiyadagi kamchiliklar, tengdoshlar ta’siri, stress)	Xulqi og‘ishganlikni aniqlashda qaysi usullardan foydalaniladi?	Deviant xulqning oldini olishda oila, maktab va bo‘sh vaqtni tashkil etish qanday profilaktika konsepsiyasini tashkil etadi?	Nima uchun deviant xulqni tushunishda shaxs, oila, ta’lim muhiti va jamiyat omillari birgalikda hisobga olinishi kerak?
		Psixik taraqqiyotda norma tushunchasi haqida ma’lumot bering. (T.I. psixologik norma, yosh, individual xususiyatlar, madaniy muhit)	Patologiya tushunchasi va uning normadan farqini izohlab bering. (T.I. patologiya, ijtimoiy moslashuv, buzilish, kompleks baholash)	Nima uchun deviant xulqni aniqlashda faqat bitta test yoki bitta xatti-harakatga tayanib xulosa chiqarish to‘g‘ri emas?	Xulq og‘ishini tuzatish metodlari qanday yo‘nalishlarga bo‘linadi?	Psixologning deviant xulq profilaktikasi va tuzatishdagi roli nimalardan iborat va nima uchun u yolg‘iz ishlay olmaydi?
2.	**Xulq og‘irligini tahlil qilishda mediko-psixiatrik, ijtimoiy va ijtimoiy-psixologik yondashuvlar**	Xulq og‘irligi tushunchasi haqida ma’lumot bering. (T.I. xulq og‘irligi, me’yorlarga moslashish, xulqning davomiyligi, turli muhitlar)	Mediko-psixiatrik yondashuvda xulqni tahlil qilishda nimalar baholanadi? (T.I. psixik va somatik holat, nevrologik va psixiatrik belgilar, irsiy va biologik xavf omillari)	Oilaviy tarbiya bilan bog‘liq xulq og‘irligi sabablarini sanab o‘ting.	Referent guruh tushunchasi va uning o‘smir qadriyatlari hamda o‘zini baholashiga ta’sirini tushuntiring.	Xulq shakllanishining kompleks modelida biologik omillardan o‘smir xulqigacha bo‘lgan zanjirni izohlang.
		Xulqni tahlil qilishning asosiy yondashuvlari haqida ma’lumot bering. (T.I. mediko-psixiatrik, psixologik, ijtimoiy, ijtimoiy-psixologik yondashuv)	O‘smirda xulq og‘irligiga olib keluvchi psixologik sabablarni izohlab bering. (T.I. impulsivlik, frustratsiyaga chidamlilikning pastligi, o‘zini past baholash, hissiyotlarni boshqarish)	Maktab va ta’lim bilan bog‘liq xulq og‘irligi sabablarini sanab o‘ting.	Referent guruhlarning salbiy ta’siri (guruh bosimi, bulling, taqlid) qanday namoyon bo‘ladi?	Xulq og‘irligini baholashda nimalar o‘rganiladi va nima uchun baholash turli muhitlar bo‘yicha olib borilishi kerak?
		Xulq og‘irligini baholashda e’tiborga olinadigan asosiy mezonlar haqida ma’lumot bering. (T.I. rivojlanish bosqichi, xulqning davomiyligi, turli muhitlarda namoyon bo‘lishi)	O‘smir psixik taraqqiyotidagi patologik o‘zgarishlar qanday belgilar bilan namoyon bo‘ladi? (T.I. kuchli va doimiy tajovuzkorlik, ijtimoiy aloqalardan keskin chekinish, kayfiyatning keskin o‘zgarishi, o‘qishga qiziqishning keskin pasayishi)	Xulq og‘irligida oilaviy himoya omillari sifatida nimalar xizmat qiladi?	Ijtimoiy-psixologik yondashuvda o‘smirga “Kimning fikri uning uchun muhim?” kabi savollar nima uchun beriladi?	Oila, maktab va o‘smirning o‘zi tomonidan olib boriladigan profilaktika va korreksiya ishlari bir-birini qanday to‘ldiradi?
3.	**Xulqi og‘irlikning psixogigiyenasi va psixoprofilaktikasi**	Xulqi og‘irlik tushunchasi haqida ma’lumot bering. (T.I. xulqi og‘irlik, takrorlanib turuvchi xulq-atvor qiyinchiliklari, ijtimoiy muhit talablari)	Xulqi og‘irlikka ta’sir qiluvchi biologik, psixologik va ijtimoiy omillarni izohlab bering. (T.I. temperament, ehtiyojlarning qondirilmasligi, noto‘g‘ri tarbiya)	Bola tarbiyasiga nazariy yondashuvning asosiy qoidalarini sanab o‘ting.	Maqtov va rag‘batlantirishning to‘g‘ri va noto‘g‘ri shakllari qanday konsepsiyaga tayanadi? (“Sen hammadan zo‘rsan!” misolida tushuntiring)	Bolaga mustaqillik berish va sog‘lom nazorat o‘rtasida nima uchun muvozanat bo‘lishi kerak?
		Psixogigiyena nima va uning asosiy vazifalari qanday? (T.I. ruhiy salomatligi, sog‘lom psixologik muhit, uyqu va dam olish, ruhiy zo‘riqish)	Psixoprofilaktika tushunchasi va uning asosiy yo‘nalishlarini izohlab bering. (T.I. psixoprofilaktika, erta aniqlash, psixologik maslahat, individual xususiyatlar)	Tarbiyaning asosiy usullarini sanab o‘ting.	Jazo va uning psixologik xususiyatlarini tushuntiring: nima uchun jazo xatti-harakatga qaratilishi, bola shaxsiga emas?	Bolalar temperamenti turlari xulqi og‘ir bolalar bilan ishlashda qanday hisobga olinishi kerak?
		Psixogigiyena va psixoprofilaktika tushunchalari bir-biridan qanday farqlanadi? (T.I. ruhiy salomatligi, shart-sharoitlar, oldindan aniqlash, oldini olish)	Xulqi og‘irlikning asosiy ko‘rinishlarini izohlab bering. (T.I. haddan tashqari tajovuzkorlik, qaysarlik va itoatsizlik, yolg‘on gapirish, o‘g‘rilikka moyillik)	Bolaga mustaqillik berishda ota-ona qanday qoidalarga amal qilishi kerak?	Haddan tashqari nazorat bolaning xulqida qanday tendensiyalarni keltirib chiqaradi?	Maqtov, jazo va nazoratning uyg‘unligi bolaning ruhiy salomatligini saqlashda nima uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega?

4.	**O‘smir shaxsining norasmiy va kriminal guruhlarda shakllanishi**	O‘smirlik davrining psixologik xususiyatlari haqida ma’lumot bering. (T.I. 11–15 yosh, hissiy beqarorlik, emansipatsiya, tengdoshlar guruhi)	Agressiya tushunchasi va uning turlarini izohlab bering. (T.I. jismoniy, og‘zaki, bilvosita, autoagressiya)	Uyatchanlik va qo‘rquv paydo bo‘lishining asosiy sabablarini sanab o‘ting.	Tarbiyasi qiyin bolalarning asosiy turlari qanday tasnif asosida ajratiladi?	Mazmunli band bo‘lmagan o‘smir nima uchun norasmiy, keyin esa kriminal guruhga tortilish xavfiga ko‘proq duch keladi?
		Xarakter aksentuatsiyasi va psixopatiya nima? (T.I. A.Ye.Lichko, xarakter aksentuatsiyasi, psixopatiya, ijtimoiy moslashuv)	Agressiyaning paydo bo‘lish sabablarini tushuntiring. (T.I. oilaviy tarbiya nuqsonlari, frustratsiya, ijtimoiy o‘rganish, tengdoshlar bosimi)	Uyatchanlik va qo‘rquvni tuzatish yo‘llarini sanab o‘ting.	Norasmiy va kriminal guruhlar qaysi mezonlar bo‘yicha farqlanadi?	Guruhda xulq-atvor shakllanishining identifikatsiya, konformizm, “obro‘” uchun kurash va deindividuatsiya mexanizmlari o‘smir xulqiga qanday ta’sir qiladi?
5.	**Bolalarda agressiya va zo‘ravonlik**	Agressiya va zo‘ravonlik tushunchalari haqida ma’lumot bering. (T.I. agressiya, agressivlik, konstruktiv agressiya, destruktiv agressiya, zo‘ravonlik)	Agressiyani tushuntiruvchi asosiy nazariyalarni izohlab bering. (T.I. Freyd, frustratsiya, Bandura, Lorens)	A.Bass va A.Darki bo‘yicha agressiyaning sakkiz shaklini sanab o‘ting.	Agressiyaga moyil bolalarning olti tipini sanab, har birining asosiy motivini ayting.	Bulling guruh hodisasi ekanini K.Salmivalli rollari asosida tushuntiring va kuzatuvchilarning himoyachiga aylanishi nima uchun bullingni to‘xtatishini asoslang.
		Agressiya va zo‘ravonlik o‘rtasidagi farqni izohlab bering. (T.I. kuchlar nomutanosibligi, qasd, takrorlanish)	A.Banduraning “Bobo qo‘g‘irchoq” tajribasi qanday natijalarni ko‘rsatdi? (T.I. ijtimoiy o‘rganish, kuzatish, taqlid, namuna)	Zo‘ravonlikning to‘rt klassik turini sanab o‘ting.	Bir xil xulq (masalan, urish) turli tipdagi bolalarda nima uchun turli sababga ega va bu yondashuvga qanday ta’sir qiladi?	“Jahl termometri” usulining mohiyatini tushuntiring va nima uchun jahlni 4–6 darajada to‘xtatish eng oson ekanini asoslang.
		Agressiya va agressivlik qanday farqlanadi? (T.I. vaqtinchalik holat, shaxs xususiyati, barqaror moyillik)	Agressiyaning yosh bilan o‘zgarishini izohlab bering. (T.I. maktabgacha, kichik maktab, o‘smirlik, bilvosita)	“Agressiya aysbergi” metaforasida ko‘rinadigan xulq va yashirin sabablar qaysilar?	Konfliktning zo‘ravonlikka aylanish bosqichlari qanday tendensiyani ko‘rsatadi va eng samarali aralashuv oynasi qayerda?	“To‘xta – Ket – Ayt” qoidasi va “Men-xabar” formulasi bola xulqini qanday o‘zgartiradi? Fikringizni asoslang.
6.	**Oilada xulqida og‘ishi bo‘lgan bolalar bilan ishlash**	Bronfenbrennerning ekologik tizimlar nazariyasiga ko‘ra bola qaysi muhitlarda shakllanadi? (T.I. mikrotizim, mezotizim, ekzotizim, makrotizim)	M.Bowen nazariyasida “belgilangan bemor” va uchburchaklashuv tushunchalarini izohlab bering. (T.I. belgilangan bemor, uchburchaklashuv, differensiatsiya)	Oiladagi to‘rt munosabat yo‘nalishini sanab o‘ting.	R.Hillning ABC-X modeli nima uchun bir xil stressor turli oilalarda turlicha inqirozga olib kelishini tushuntiradi?	Nima uchun bolani “tuzatish” emas, oilaviy tizimni sog‘lomlashtirish kerak? Jasur keysi misolida asoslang.
		Oila tizim sifatida qanday tushuniladi? (T.I. yagona tizim, deviant xulq, oiladagi munosabatlar)	G.Pattersonning majburlash sikli qanday ishlaydi? (T.I. majburlash sikli, talab, qarshilik, yon berish, o‘rganish)	Oila etikasi va estetikasi nima va ularning tarkibiy qismlarini sanab o‘ting.	Normativ va nonormativ oilaviy inqirozlar qanday farqlanadi va ularning ustma-ust tushishi nima uchun xavfli?	D.Baumrind uslublaridan qaysi biri deviant xulq xavfini eng ko‘p oshiradi va nima uchun?
		Oilada xulqida og‘ishi bor bolalar bilan ishlashning asosiy g‘oyasi nimadan iborat? (T.I. deviant xulq, oiladagi munosabatlar, ko‘zgu, oilaviy tizim)	J.Gottmanning “to‘rt suvoriy” tushunchasi nimani anglatadi? (T.I. tanqid, mensimaslik, himoyalanish, devor qurish)	Thomas–Kilmann bo‘yicha konfliktdagi besh xulq uslubini sanab o‘ting.	Oilada konfliktni yechimga olib kelishning besh bosqichli algoritmi qanday tuzilgan?	Xulqida og‘ishi bor bola oilasi bilan pedagogning hamkorlik bosqichlari qanday va nima uchun xavf hamda himoya omillari birgalikda hisobga olinadi?
7.	**O‘smirlarda alkogolizm, toksikomaniya va jinsiy buzilishlar**	O‘smirlarda alkogolizm tushunchasi va uning namoyon bo‘lishi haqida ma’lumot bering. (T.I. alkogolizm, o‘smirlik, ruhiy qaramlik, jismoniy qaramlik)	Alkogolizmning bosqichlarini izohlab bering. (T.I. alkogolizm bosqichlari, ruhiy qaramlik, jismoniy qaramlik, abstinensiya)	Narkotik moddalarning asosiy turlarini sanab o‘ting.	Narkomaniyada shaxs degradatsiyasi nimani anglatadi va u qanday bosqichlarda namoyon bo‘ladi?	Nima uchun o‘smirlarda ichkilikka berilish va narkomaniyaning oldini olishda oila, maktab va tengdoshlar muhitini birgalikda hisobga olish zarur?
		Toksikomaniya tushunchasi va uning narkomaniyadan farqi haqida ma’lumot bering. (T.I. toksikomaniya, narkomaniya, zaharli moddalar, qaramlik)	Alkogolizmda shaxs tuzilishidagi o‘zgarishlarni izohlab bering. (T.I. shaxs o‘zgarishi, iroda susayishi, emotsional beqarorlik, ijtimoiy moslashuvning buzilishi)	Narkomaniyaning ijtimoiy-psixologik sabablarini sanab o‘ting.	Jinsiy buzilishlarning ko‘rinishlari va sabablari qanday konsepsiyalar asosida tushuntiriladi?	O‘smirda ichkilik yoki narkotikka berilish belgilari paydo bo‘lganda pedagog va psixolog qanday harakat qilishi kerak? Fikringizni asoslang.
8.	**Suitsidal axloq**	Suitsidal axloq tushunchasini ta’riflab bering. (T.I. suitsid, suitsidal axloq, suitsidal fikrlar, ruhiy inqiroz)	Suitsidal axloqning tipologiyasini izohlab bering. (T.I. demonstrativ, affektiv, haqiqiy suitsid)	Suitsidal axloqning yosh xususiyatlarini sanab o‘ting.	Suitsidal axloq shakllanishining asosiy kontseptsiyalarini tushuntiring.	Nima uchun suitsidal belgilarga erta e’tibor berish va ularni “shunchaki e’tibor uchun” deb baholamaslik muhim?
		Suitsidal xulq-atvorning psixologik va ijtimoiy mohiyati haqida ma’lumot bering. (T.I. psixologik inqiroz, umidsizlik, ijtimoiy izolyatsiya, himoya omillari)	Demonstrativ va haqiqiy suitsidal xulq bir-biridan qanday farqlanadi? (T.I. demonstrativ xulq, haqiqiy suitsid, maqsad, jiddiylik)	O‘smirlik va yoshlik davrlarida suitsidal xavf omillari qanday farqlanadi?	Suitsidal motivatsiya qanday shakllanadi va uning asosiy motivlari xulqqa qanday ta’sir qiladi?	Suitsidal xulq profilaktikasida oila, maktab va psixologning hamkorligi qanday tashkil etilishi kerak?
9.	**Tobe va tajovuzkor axloq**	Tobe axloqning tavsifnomasi haqida ma’lumot bering. (T.I. tobe axloq, qaramlik, tobelik, xulq og‘ishi)	Tobe axloqning ko‘rinishlari va kelib chiqish sabablarini izohlab bering. (T.I. kimyoviy tobelik, nokimyoviy tobelik, ijtimoiy muhit, psixologik omillar)	Tobe axloq shakllanishiga ta’sir qiluvchi shaxsning ichki omillarini sanab o‘ting.	Kimyoviy tobelik va ozuqaga tobelik qanday konsepsiyalar asosida tushuntiriladi?	Tobe va tajovuzkor axloq o‘rtasida qanday bog‘liqlik bo‘lishi mumkin? Fikringizni asoslang.
		Tajovuzkor axloq tushunchasi va uning tobe axloqdan farqi haqida ma’lumot bering. (T.I. tajovuzkorlik, agressiya, tobelik, xulq og‘ishi)	Tajovuzkor axloqning kelib chiqish sabablarini izohlab bering. (T.I. frustratsiya, oilaviy muhit, ijtimoiy o‘rganish, tengdoshlar bosimi)	Tobe axloqning kuchayishiga olib keladigan tashqi (oila, tengdoshlar, ijtimoiy muhit) omillarni sanab o‘ting.	Ozuqaga tobelikning psixologik asoslarini tushuntiring.	Tobe va tajovuzkor axloqning oldini olishda pedagog-psixolog hamda oilaning vazifalari qanday bo‘lishi kerak?